

Date: 17th November-2024

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toshtemirov Anvar Jamoliddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tushunchasini, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi kundagi xolati, samaradorlik darajasi. Hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning o'ziga hos xususiyatlari. Bundan tashqari profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish faoliyatida ommaviy axborot vositalarining o'rni, o'zaro hamkorligi. Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samaradorligini oshirish borasidagi muammo va kamchiliklar va ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в понятии, видах информационно-коммуникационных технологий, современном состоянии информационно-коммуникационных технологий в профилактической деятельности, уровне эффективности. Также рассмотрены особенности использования информационно-коммуникационных технологий в профилактической деятельности. Кроме того, рассмотрена роль средств массовой информации в деятельности инспектора по профилактике правонарушений, взаимном сотрудничестве. Также освещены проблемы и недостатки повышения эффективности информационно-коммуникационных технологий в профилактической деятельности и ряд предложений по устранению этих проблем и недостатков.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: " Bugungi globallashuv zamonida yashayotgan bir vaqtda insoniyat tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlar, rivojlanishlar yuz bermoqda. Siyosiy –iqtisodiy, ilm-fan, texnika-injeneriya sohalarini olamizmi, ijtimoiy-huquqiy, xarbiy sohalarni olamizmi, bularning barchasida misli ko'rilmagan rivojlanishning guvohi bo'lmoqdamiz. Buning asosiy sabablaridan biri axborotlarning dunyo bo'ylab juda tez va keng ko'lamda tarqalayotganligidir.

XXI asr – axborot va axborot texnologiyalari asridir. Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar doirasi kengayib, u nafaqat an'anaviy iste'molchilar, ya'ni axborot-tahlil markazlari, ommaviy axborot vositalari, xavfsizlik idoralarining, balki jamiyat a'zolarining ham manfaatlari ob'yektiga aylanmoqda. «Axborot jamiyati»ni shakllantirish jarayoni yuz bermoqda va axborot hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Jamiyatni axborotlashtirish orqali axborot oqimlarini boshqarish tizimlarida hamda siyosiy



Date: 17th November-2024

qarorlarning qabul qilinishini axborot tahliliy ta'minlash mexanizmidan sifat o'zgarishlariga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmonida «Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha ishlar asosan, sodir etilgan g'ayriqonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashishdan iborat bo'lib qolmoqda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli va samarali choratadbirlar ko'rilmayotganligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmayotganligini» ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini taminlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi Ichki Ishlar Organlarini faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196 sonli farmonida;

Ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib quyidagilar belgilandi:

har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish;

hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda «jinoyat o'choqlari»ni bartaraf etish borasida uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish; «respublika—viloyat — tuman — mahalla» tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish.

Profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi «Smart mahalla» axborot dasturi ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Salbiy xodisalarning barchasi jumladan jinoyatchilik xam ma'naviy qashshoqlik, ma'rifiy kemtiklik sharoitida vujudga keladi. Ana shu xulosadan kelib chiqib aytganda qonunbuzarlikning oldini olish, tartibbuzarliklarga qarshi kurashni kuchaytirish, xozirgi iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish davrida qonun ustuvorligini taminlashda



Date: 17th November-2024

huquqbuzarliklar profilaktikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish lozim.

Profilaktika inspektorlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nafaqat huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda, balki:

1. sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda , jabrlanganlarga ijtimoiy, xuquqiy , psixologik , pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatishda;

2. Qishlok, ovul va maxallalarda qriminogen vaziyatni , xuquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganishda, shuningdek o'rganish natijalari bo'yicha tegishli organlarga ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ma'lumot va takliflarni taqdim etishda;

3. Huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, xuquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan shar- sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek xuquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan tegishli profilaktik ishlarni tashkil qilishda;

4. Tayanch punktlari faoliyati, uning xquqq- tartibot va fuqarolar xavfsizligini taminlash vazifalarini xal etishdagi o'rni to'g'risidagi ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirishda; 5. Qonuniylik va xuquq-tartibotni, qonun xujjatlari talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashda;

6. Huquqbuzarlikni o'z vaqtida va to'la aniqlash, ularni sodir etgan shaxslarni topish, shuningdek javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilinishini ta'minlashda o'quvchilarning ta'lim muassasalaridagi kunlik davo'atini nazorat qilishda, ijtimoiy jixatdan xavfli axvolda bo'lgan va ta'lim muassasalariga surunkali ravishda qatnamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan tegishli profilaktik ishlarni olib borishda;

7. Taqiqlangan tashkilotlar xamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g'ayriqonuniy xamda buzg'unchilik ruxidagi guruxlar faoliyatiga aloqador shaxslarni va ular bilan profilaktik ishlarni amalga oishirishda;

8. Axoli bilan muntazam ravishda mavjud muammolarni o'rganish va ularni xal etishning maqbul yo'llarini aniqlashga qaratilgan uchrashuvlar o'tkazish ishlarida;

9. Huquqbuzarliklarni oldini olish , fuqarolarning xuquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga qonunga xurmat ruxini singdirish bo'yicha turli mavzularda davra suxbatlari o'tkazishda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda, shuningdek tayorlanayotgan yoki sodir etib bo'lingan xuquqbuzarliklar xaqidagi xabarlarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqishda;

10. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlashda va hisobini yuritishda, ularning chet elda bo'lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borishshda, uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishda;

11. Biriktirilgan hududdagi har bir oilani aylanib chiqishda va ularni o'rganishda, notinch oilalarni aniqlashda, ular bilan profilaktik ishlar olib borishda, shu jumladan, ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko'maklashishda;



Date: 17th November-2024

12. Fuqarolar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida qonun hujjatlari talablariga rioya etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarida tushuntirish ishlarini tashkil etishda;

13. Sanitariya, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va yong'in xavfsizligi sohalaridagi qonunchilikka rioya etilishi bo'yicha choralarni amalga oshirishda ishtirok etishda;

14. Egasiz turar joylarni aniqlash va ularning saqlanishini nazorat qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rishda xam muxim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samaradorligini oshirish maqsadida Profilaktika inspektorlari ommaviy axborot vositalari bilan quyidagi yo'nalishlarda xamkorlik qiladi:

- Qonunchilikni targ'ib qilish va tushuntirish;
- Fuqarolarning xuquqiy ongini shakllantirish;
- Xuquqbuzarliklarni aniqlash xamda ularning sabablari va shart - sharoitlarining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish;
- Ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etishga fuqarolarni jalb qilish;
- Xuquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga yoki xuquqbuzarlarga tarbiyaviy profilaktik ta'sir ko'rsatishda;
- Xuquq tartibotni buzuvchi va ularga xayrixox bo'lganlarga nisbatan muvofiqsiz bo'lish uchun jamoatchilik fikrini shakllantirishda;
- Xar bir sodir etilgan xuquqbuzarlik uchun jazo muqarrarligini targ'ib qilishda;
- Muayyan jinoyatchilar va ular sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida fuqarolardan olingan ma'lumotlar asosida jinoiy xarakterlarning oldini olishni tashkil etishda;
- Ichki ishlar organlari faoliyatini xar qanday sharoitlarga moslashtirish maqsadlarida axoli o'rtasida ijobiy ma'naviy- psixologik muxitni shakllantirishda;
- Axolining jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarning, voqea, xodisalarning xaqiqiy xolati bilan tanishtirish va shunga asosan xar xil asossiz mish-mishlarni oldini olishda;
- Muayyan xuquqiy to'qnashuvga amaliy jixatdan aralashishda;
- Jamoatchilikning natijali faoliyat ko'rsatish shakllarini ijtimoiy faollikning oliyjanob ma'naviy tomonlarini targ'ib etishda;
- Uyushqoqlik va intizomni shakllantiruvchi yangi an'ana va odatlarni tushuntirishda;
- Ma'naviy tuban shaxslarga nisbatan qarshi kurashish va ularni tug'ri yo'lga qaytarish kabi masalalarda xamkorlikni amalga oshiradi.

Bu yo'nalishlarning xar biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida O'tgan qisqa davr huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tubdan yaxshilash, borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.



Date: 17th November-2024

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tahliliga tayanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga yangi tartiblar va mexanizmlarning joriy etilganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, islohotlarning birinchi bosqichi yakunlandi. Ushbu bosqich yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, sohada dastlabki samaralar kuzatilayotganligini qayd etish joiz. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasida salmoqli natijalarga erishildi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat xayotining barcha soxalarida tartibga solishning huquqiy asoslarini mustaxkamlab borayotgan, demokratiya adolat, inson huquqlari va erkinliklarini muxofaza qilish prinsiplariga amal qilinayotgan bugungi kunda fuqarolik jamiyati va demokratik davlat qurish masalalari bo'yicha muxim axamiyat kasb etgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri xisoblangan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning viktimalogik profilaktikasini amalga oshirish faoliyatini o'rganish muxim axamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ushbu faoliyat bilan bog'liq aholini bezovta qilayotgan ko'pgina muammo va kamchiliklar ham o'z yechimini kutib turibdi. Bu o'rinda qo'lga kiritilgan dastlabki yutuqlar bilan kifoyalanib qolmasdan, hali tizimni isloh qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar nihoyatda ko'p ekanligini e'tiborga olgan holda olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirishimiz, ularning samaradorligini yanada oshirishimiz zarur.

